

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 112 (901), 2023-yil 8-iyun, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ITALIYAGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellaning taklifiga binoan 7-iyun kuni rasmiy tashrif bilan Rim shahriga keldi.

Italiya poytaxtining “Fyumichino” aeroportida O‘zbekiston yetakchisining tashrifi munosabati bilan ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi, faxriy qorovul saf tortdi.

Oliy martabali mehmonni Italiya mudofaa vaziri Gvido Krozetto va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, oliy darajadagi uchrashuvlar Rim shahrida bo‘lib o‘tadi. Davlatimiz rahbari Italiya Prezidenti Serjo Mattarella va Bosh vaziri

Jorja Meloni bilan muzokaralar o‘tkazadi.

O‘zbekiston bilan Italiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni va ustuvor yo‘nalishlardagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro kun tartibi yuzasidan fikr almashiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston yetakchisi bosh qarorgohi Italiya poytaxtida joylashgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti bosh direktori Syuy

Dunyuy bilan uchrashuv o‘tkazadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi hamkorlikning muhim jihatlari muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Tashrifning ishbilarmonlik dasturi Milan shahrida bo‘lib o‘tadi — O‘zbekiston Prezidenti Lombardiya viloyati gubernatorini qabul qiladi hamda Italiyaning yetakchi kompaniya va tashkilotlari rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazadi.

O‘ZA

2023 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi tashviqoti bo‘yicha maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinmoqda.

▶ 3-betga qarang.

O‘zbekiston — Italiya:

KO‘P QIRRALI ISHONCHLI SHERIKLIK YANADA YUQORI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

7-iyun kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Italiyaga uch kunlik rasmiy tashrifi boshlandi.

Ushbu tashrif 1992-yil 24-martda o‘rnatilgan O‘zbekiston — Italiya munosabatlari tarixidagi muhim voqealardan biri bo‘lishi kutilmoqda. O‘tgan 31 yil davomida o‘zaro manfaatli va istiqbolli hamkorlik uchun mustahkam

poydevor yaratildi, ishonchli siyosiy muloqot o‘rnatildi. To‘rtta oliy darajadagi tashrif — ikki marta Italiyaga va ikki bora O‘zbekistonga amalga oshirildi.



▶ Davomi 2-betda

ISLOHOT ODIMLARI

RAQAMLASHTIRILAYOTGAN KADASTR


har bir qarich yerni hisobga olishda muhim ahamiyatga ega

Mamlakatimizdagi izchil islohotlarda insonga bo‘lgan e‘tibor va xalq farovonligini ta‘minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Yer maydonlarini asrab-avaylash borasida hamda fuqarolarning mulk huquqi va daxlsizligi, uni ishonchli himoyalashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilingan.

▶ Davomi 2-betda

ITALIYADA “Boburnoma” ASARI CHOP ETILDI


Italiyaning tarixiy ilmiy-ommabop adabiyotlarga ixtisoslashgan yetakchi nashriyotlaridan biri “Sandro Teti Editore” nashriyot uyi Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asarini italyan tilida yuqori poligrafik sifatda chop etdi.



▶ Davomi 6-betda

“Qo‘shiqlar kitobi”

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Italiya davlatiga rasmiy tashrifi arafasida buyuk italyan shoiri, italyan adabiy tilining asoschilaridan biri, faylasuf Franchesko Petrarkaning “Qo‘shiqlar kitobi” deb nomlangan to‘plami nashr etildi.



▶ Davomi 6-betda

YOSHLAR OYLIGI

BUGUNNI ERTAGA TOPIB BO‘LMAYDI

Shu kunlarda mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida “Yoshlar oyligi” bo‘lib o‘tmoqda. Ushbu tadbir davomida turli sohalarida tanlovlar, festivallar, intellektual o‘yinlar, sport musobaqalari tashkil etiladi. Quyidagi maqolada maktabni bitirayotgan yoshlar, ularning bugungi hayoti, o‘y va tashvishlari haqida mulohaza yuritilgan.



Mening yosh zamondoshim!
Baxtingiz shundaki, orzu-umidlar ro‘yobiga eltuvchi barcha imkon qo‘lingizda, chunki endigina balog‘at ostonasidan hatladingiz. Bir faylasuf aytganidek, kechagina xalq uchun nandan so‘ng eng muhimi bo‘lgan maktab ostonasiga kirib kelgan edingiz. Qarang, umringizning eng haroratli o‘n bir yilining jo‘shqin damlari kechgan qutlug‘ ostona ham bugun tarixga aylandi. Endi istasangiz ham bu maskanda biror lahza bo‘lsada, o‘quvchi sifatida saboq ololmaydiz. Ha, shuning uchun ham umrning har lahzasi aziz, undan haqingni olib qololmasang, pushaymon bo‘lasan, degan ulug‘lar.

Bugun shu qutlug‘ maskanni bitirib, katta hayot chorrahasida turibsiz. Avval boshda oila, keyin qisman bog‘cha, maktabdagi tarbiya va bilimni o‘zingizniki qilib olgan bo‘lsangiz, shuncha yillik umringizni behuda o‘tkazmaganingiz uchun otanangizdan ham, ustozlaringizdan ham, hatto o‘zingizdan ham butun umr minnatdor bo‘lasiz hali. O‘quvchilik davringizdan o‘z haqingizni olganingiz uchun tashakkur, barakalla! Ishonamizki, intilishingiz ortidan mustaqil hayotga mardona kirib borasiz va unda ham barchaning ishonchini oqlashingizga umidvormiz.

▶ Davomi 5-betda

KUN MAVZUSI

MAGNIT BO‘RONLARI VA ULTRABINAFSHA NURLAR

Ularning ta‘siri nima sababdan kuchayib bormoqda?

Oxirgi vaqtlarda magnit bo‘ronlarining kuchayishi, quyoshning ultrabinafsha nurlanish indeksi me‘yoridan ortishi, issiqlik kuchayib, bu yil yoz mavsumida, hatto, anomol darajaga yetishi haqidagi xabarlar internet tarmog‘ida tez-tez e‘lon qilinmoqda. Bu hodisalar ayrim insonlar salomatligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi bois, mutaxassislar tomonidan ehtiyot choralar borasida tavsiyalar ham berilyapti. Ya‘ni olimlar ushbu tabiat “injiqliklari”ni qaytarish hozircha imkansizligini ta‘kidlagani holda, ularning oldini olishga intilish to‘g‘ri yechim ekanini aytmoqda.



Insoniyat ko‘p asrlik evolyutsiyasi davomida osmon jismlarini o‘rganish, ularni kashf etish, koinotga chiqish, hatto, boshqa sayyoralarda yashash imkoniyatini o‘rganmoqda. Tabiiyki, sayyoramiz haroratining

ko‘tarilib borishi, uning sabab va oqibatlari borasida ham ilmiy asoslar, ishonchli tahlil va dalillar borligiga ishonamiz.

▶ Davomi 4-betda

